


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg‘ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	

HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIKLARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI

Toshov Mirzabek Hakimovich

Osiyo xalqaro universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: mirzabekhakimovich@gmail.com

ORCID: 0009-0003-7405-1353

Annotatsiya: O'zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanishida shakllanayotgan hududiy nomutanosibliklarning asosiy omillari hamda ularni kamaytirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Hududiy rivojlanishning sanoat, investitsiya, bandlik, infratuzilma, tadbirkorlik, mahalliy moliyaviy imkoniyatlar va innovatsion faollik bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Buxoro viloyati misolida mavjud statistik ma'lumotlar dinamik jihatdan tahlil qilinib, hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, iqtisodiy faollikning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi muammosi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida hududlarni iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra differensial boshqarish, investitsiyalarni nafaqat mavjud iqtisodiy markazlarga, balki rivojlanish salohiyati yetarli darajada ishga solinmagan hududlarga ham yo'naltirish, sanoat va infratuzilma loyihalarini o'zaro uyg'unlashtirish hamda hududiy iqtisodiy mutanosiblikni baholashda kompleks indeksdan foydalanish taklif etilgan. Hududiy iqtisodiy mutanosiblik indeksini (HIMI) shakllantirishning metodik yondashuvi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, iqtisodiy nomutanosiblik, hududiy rivojlanish, sanoat, investitsiya, infratuzilma, bandlik, hududiy differensiallashuv, iqtisodiy mutanosiblik, kompleks indeks.

Аннотация: Исследованы основные факторы формирования экономических диспропорций между регионами Узбекистана, а также институциональные и экономические механизмы их сокращения. Особое внимание уделено промышленному развитию, инвестиционной активности, занятости, инфраструктуре, предпринимательству, финансовым возможностям местных бюджетов и инновационной активности. На примере Бухарской области проведён динамический анализ имеющихся статистических данных, позволивший выявить как положительные тенденции регионального экономического развития, так и сохраняющуюся неравномерность распределения экономической активности между территориями. По результатам исследования предложен дифференцированный подход к управлению регионами с учётом уровня их экономического развития, предусматривающий направление инвестиций не только в существующие экономические центры, но и в территории с недостаточно реализованным потенциалом развития, взаимную увязку промышленных и инфраструктурных проектов, а также применение комплексного индекса для оценки территориальной экономической сбалансированности. Разработан методический подход к формированию Индекса региональной экономической сбалансированности (ИРЭС).

Ключевые слова: региональная экономика, экономические диспропорции, региональное развитие, промышленность, инвестиции, инфраструктура, занятость, региональная дифференциация, экономическая сбалансированность, комплексный индекс.

Abstract: The key factors contributing to economic disparities across the regions of Uzbekistan, along with institutional and economic mechanisms for reducing these disparities, are examined. Particular attention is given to industrial development, investment activity, employment, infrastructure, entrepreneurship, local financial capacity, and innovation activity. Using the Bukhara Region as a case study, available statistical data are analyzed dynamically to identify both positive trends in regional economic development and persistent inequalities in the territorial distribution of economic activity. Based on the findings, a differentiated approach to regional management is proposed, taking into account differences in levels of economic development. The proposed approach includes directing investment not only toward established economic centers but also toward territories with underutilized development potential, coordinating industrial and infrastructure projects, and applying a composite index to assess regional economic balance. A methodological approach to constructing the Regional Economic Balance Index (REBI) is developed.

Keywords: regional economy, economic disparities, regional development, industry, investment, infrastructure, employment, regional differentiation, economic balance, composite index.



KIRISH

Hududlar iqtisodiy rivojlanishining bir xil sur'atda kechmasligi bozor iqtisodiyotining tabiiy xususiyatlaridan biridir. Tabiiy resurslar, mehnat salohiyati, transport imkoniyatlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsion jozibadorlik va bozor sig'imining hududlar bo'yicha farqlanishi iqtisodiy faollikning makonda turlicha shakllanishiga olib keladi. Biroq bunday tafovutlarning uzoq vaqt davomida saqlanib qolishi hududlar o'rtasidagi daromad, bandlik, ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlar bo'yicha farqlarning chuqurlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hududiy rivojlanish masalasi iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning klassik tadqiqotlaridan boshlab zamonaviy fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalarigacha keng o'rganilgan. A. Veber ishlab chiqarishning joylashuvini transport xarajatlari va mehnat resurslari bilan bog'lagan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda M. Porterning klaster nazariyasi, P. Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya yondashuvi va aglomeratsiya iqtisodiyoti hududiy iqtisodiy faollikning makondagi konsentratsiyasini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekistonda ham hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, xususiy sektorni rivojlantirish va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasida hududiy rivojlanish, aholi farovonligi, iqtisodiy o'sish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarning amaliy ahamiyati shundaki, hududiy nomutanosibliklarni faqat moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali bartaraf etish yetarli hisoblanmaydi. Masala, avvalo, iqtisodiy faollikni shakllantiradigan omillar - infratuzilma, investitsiya, malakali kadrlar, tadbirkorlik muhiti, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va innovatsion salohiyatning hududlar bo'yicha qanday taqsimlanganida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning maqsadi hududlar iqtisodiyotidagi nomutanosibliklarning shakllanish omillarini aniqlash va ularni kamaytirishga xizmat qiluvchi institutsional hamda iqtisodiy mexanizmlarni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy nomutanosibliklar masalasi bir nechta nazariy yo'nalishlar kesishmasida shakllangan. Hududiy rivojlanish nazariyalarida ishlab chiqarish omillarining makonda notekis joylashuvi, iqtisodiy markazlarning shakllanishi va periferik hududlarning ularga bog'lanishi asosiy masalalardan biri sifatida qaraladi.

J. Fridman tomonidan ilgari surilgan "markaz-periferiya" yondashuvi iqtisodiy o'sishning dastlab ayrim markazlarda konsentratsiyalashishi va keyinchalik uning boshqa hududlarga tarqalishi mumkinligini ko'rsatadi. Zamonaviy fazoviy iqtisodiyotda esa bu jarayon aglomeratsiya, klasterlashuv va spillover effektlari orqali tushuntiriladi.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar kapital bilan ta'minlanganlik darajasi, institutsional rivojlanish va infratuzilma imkoniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan ham izohlanishi qayd etilgan. Xususan, rivojlanish sur'ati nisbatan past hududlarda "past o'sish tuzog'i" shakllanishi mumkinligi, yuqori indekska ega hududlarda esa klasterlashuv va aglomeratsiya samarasi qo'shimcha iqtisodiy impuls yaratishi ta'kidlangan.

O'zbekiston bo'yicha tadqiqotlarda hududiy rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional jihatlar alohida o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotlarda iqtisodiy ixtisoslashuv, infratuzilma, mahalliy budjet resurslari, hududlararo integratsiya va ekologik xavfsizlik masalalariga katta e'tibor berilgan.

Hududiy rivojlanish siyosatining xalqaro tajribasida esa desentralizatsiya, hududiy klasterlar, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, yashil iqtisodiyot va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish kabi yo'nalishlar muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning muhim qismida alohida omillar - masalan, sanoat, investitsiya yoki infratuzilma - mustaqil ravishda baholanadi. Amaliy boshqaruv nuqtayi nazaridan esa hududning umumiy iqtisodiy holatini bir vaqtning o'zida bir nechta omil bo'yicha baholash imkonini beradigan kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, statistik umumlashtirish, guruhlashtirish va kompleks indekslash usullaridan foydalanildi. Hududiy rivojlanishning asosiy determinantlari sifatida quyidagi guruhlar ajratildi:

- 1. sanoat ishlab chiqarishi;
- 2. investitsion faollik;
- 3. mehnat va bandlik;
- 4. transport va muhandislik infratuzilmasi;

- 5. tadbirkorlik va kichik biznes;
- 6. mahalliy moliyaviy imkoniyatlar;
- 7. innovatsion va raqamli salohiyat.

Bunday yondashuv Namangan viloyati bo'yicha tadqiqotda qo'llangan metodologik qarashlar bilan hamohang bo'lib, unda investitsiya, mehnat resurslari, transport-logistika infratuzilmasi, urbanizatsiya, bozor sig'imi va iqtisodiy faollik sanoat rivojlanishining muhim determinantlari sifatida baholangan.

Hududiy nomutanosiblikni kompleks baholash uchun muallif tomonidan **Hududiy iqtisodiy mutanosiblik indeksi (HIMI)**ni joriy etish taklif qilinadi.

Indeks quyidagi umumiy ko'rinishda ifodalanadi:

$$HIMI_i = \sum_{j=1}^n w_j Z_{ij}$$

bu yerda:

- $HIMI_i$ — i-hududning iqtisodiy mutanosiblik indeksi;
- Z_{ij} — j-ko'rsatkich bo'yicha normallashtirilgan qiymat;
- w_j — tegishli ko'rsatkich vazni;
- $\sum w_j = 1$.

Rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar uchun min-max normallashtirish:

$$Z_{ij} = \frac{X_{ij} - X_{jmin}}{X_{jmax} - X_{jmin}}$$

ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ko'rsatkichning kamayishi ijobiy hisoblangan holatlarda esa:

$$Z_{ij} = \frac{X_{jmax} - X_{ij}}{X_{jmax} - X_{jmin}}$$

formulasidan foydalaniladi.

Mazkur usul turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni yagona 0-1 oralig'iga keltirish imkonini beradi. Kompozit indikatorlarni yaratishda bunday normallashtirish yondashuvi xalqaro amaliyotda ham keng qo'llanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanishidagi ayrim tendensiyalar

Buxoro viloyati O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va turizm bilan bir qatorda, neft-gaz va qayta ishlash yo'nalishlari ham muhim o'rin egallaydi. Viloyat sanoatining asosiy yo'nalishlari sifatida neftni qayta ishlash, yengil sanoat, oziq-ovqat va un-yorma tarmoqlari qayd etilgan.

Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanishida sanoatning ahamiyati uzoq muddatli statistik ma'lumotlarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, statistik materiallarga ko'ra, viloyatda sanoat mahsuloti hajmi 2000-yildagi 126,1 mlrd so'mdan 2010-yilda 1 376,6 mlrd so'mga yetgan. Shu davrda YaHM 207,6 mlrd so'mdan 3 376 mlrd so'mgacha oshgan. Chet el investitsiyalari esa 3,3 mlrd so'mdan 1 368 mlrd so'mgacha ko'paygan.

Bu ko'rsatkichlar hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish va investitsiya omillarining uzoq muddatli ahamiyatini ko'rsatadi. Viloyat darajasidagi umumiy o'sish bilan bir qatorda, hudud ichidagi tumanlarning iqtisodiy natijalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish resurslarining muayyan markazlarda jamlanishi iqtisodiy faollikning hududlar kesimida farqlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

Bu jihatni O'zbekistonda kichik biznesning eksport faoliyati misolida ham kuzatish mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro viloyatida kichik biznesning eksportdagi ulushi 2023-yilda 22,1 foiz, 2024-yilda 21,5 foiz va 2025-yilda 23,0 foizni tashkil etgan. Demak, 2024-yildagi o'zgarishdan so'ng 2025-yilda 1,5 foiz punktlilik o'sish kuzatilgan.

Mazkur ko'rsatkich ijobiy tendensiyani bildiradi va hududlar bo'yicha eksport imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Eksport faoliyati, odatda, transport-logistika imkoniyatlari, ishlab chiqarish



kooperatsiyasi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati va bozor infratuzilmasi yaxshi shakllangan hududlarda tezroq rivojlanadi.

Hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni baholashda bandlik ko'rsatkichini alohida ajratish maqsadga muvofiq. Chunki iqtisodiy o'sishning ijtimoiy natijasi, avvalo, yangi ish o'rinlari va aholi daromadlarida namoyon bo'ladi.

Statistik materiallarda O'zbekistonda ishsizlar sonining 2020-2024-yillarda izchil kamaygani ko'rsatilgan. Buxoro viloyatida ishsizlar soni 2020-yildagi 93,9 ming kishidan 2024-yilda 45,1 ming kishigacha kamaygan. Mutlaq kamayish 48,8 ming kishini, nisbiy qisqarish esa qariyb 52 foizni tashkil etgan.

Bu natijani ijobiy baholash mumkin. Shu bilan birga, viloyat miqyosida bandlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi hududlar o'rtasidagi bandlik sifati va daromadlar tafovutini yanada qisqartirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida mehnat bozorini kengaytirish, malaka va bozor talabi o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish, kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli hududiy siyosatda "ishsizlikni kamaytirish" ko'rsatkichi bilan bir qatorda, barqaror va yuqori unumdor ish o'rinlarini yaratish ko'rsatkichiga ham e'tibor qaratish zarur.

Hududiy nomutanosibliklarning asosiy sabablari

O'rganilgan materiallar asosida hududiy iqtisodiy tafovutlarni quyidagi oltita asosiy guruhga ajratish mumkin.

1. Investitsiyalarning makonda notekis taqsimlanishi

Investitsiya oqimlari ko'pincha mavjud infratuzilmasi, bozori va ishlab chiqarish bazasi rivojlangan hududlarga yo'naladi. Bu esa, o'z navbatida, "investitsiya - ishlab chiqarish - yangi investitsiya" zanjirini shakllantiradi.

Natijada iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda o'sish sur'atlari yanada jadallashishi, rivojlanish salohiyati yuqori bo'lgan boshqa hududlarda esa investitsion jozibadorlikni oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar shakllanishi mumkin.

2. Infratuzilmaviy tafovutlar

Transport, elektr energiyasi, gaz, suv, aloqa va logistika tizimlarining sifati hududning ishlab chiqarish salohiyatini bevosita belgilaydi. Sanoatni hududiy joylashtirish bo'yicha tadqiqotlarda ham transport-logistika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi muhim determinant sifatida ajratilgan.

3. Hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi

Ixtisoslashuv hudud uchun raqobat ustunligini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ixtisoslashuvni diversifikatsiya bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

4. Inson kapitalidagi tafovutlar

Malakali mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi investitsiyalar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hududiy rivojlanish siyosatida sanoat loyihalarini kadrlar tayyorlash tizimi bilan birgalikda rejalashtirish maqsadga muvofiq.

5. Mahalliy moliyaviy imkoniyatlarning farqlanishi

Hududlarning o'z daromad bazasi, soliq salohiyati va budjet imkoniyatlari turlicha. Moliyaviy salohiyatni yanada rivojlantirish hududlarda rivojlanish loyihalarini mustaqil moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Mahalliy budjetlar barqarorligini oshirish va budjet jarayonlarining ochiqqligini kuchaytirish hududlararo moliyaviy tafovutlarni kamaytirish vositalaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

6. Innovatsion va raqamli tafovutlar

Raqamli infratuzilma, texnologik yangilanish va innovatsion faoliyat hududlarning yangi iqtisodiy imkoniyatlarni o'zlashtirish qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishda raqamlashtirishni alohida siyosiy instrument sifatida ko'rish lozim.

Hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish mexanizmi

Tadqiqot natijasida hududlarni yagona yondashuv asosida boshqarish bilan bir qatorda, differensial hududiy siyosatni qo'llash taklif etiladi.

Buning uchun hududlarni HIMI qiymatiga ko'ra to'rt guruhga ajratish mumkin:

1-jadval.

Hududlarni Hududiy iqtisodiy mutanosiblik indeksi (HIMI) qiymatlari asosida guruhlash va differensial rivojlantirish yo'nalishlari

HIMI qiymati	Hudud turi	Asosiy xususiyat	Siyosiy ustuvorlik
0,75-1,00	Yetakchi hudud	O'sish imkoniyatlaridan foydalanish	Eksport, innovatsiya, klaster
0,50-0,75	Barqaror hudud	Ayrim rivojlanish imkoniyatlari mavjud	Nuqtaviy modernizatsiya
0,25-0,50	Transformatsion hudud	Infratuzilma va investitsiyani kengaytirish zarurati	Maqsadli investitsiya
0-0,25	Rivojlanish salohiyati yuqori hudud	Tizimli iqtisodiy imkoniyatlarni faollashtirish	Bazaviy infratuzilma va davlat ko'magi

Buxoro viloyati uchun taklif etilayotgan differensial yondashuv

Buxoro viloyati sharoitida hududlarni iqtisodiy funksiyasiga ko'ra bir necha tipga ajratish maqsadga muvofiq.

Birinchi tip - sanoat-energetika hududlari. Bunday hududlarda asosiy vazifa xomashyo eksporti bilan bir qatorda qiymat zanjirini chuqurlashtirish, qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat.

Ikkinchi tip - shahar iqtisodiy markazlari. Buxoro va Kogon kabi markazlarda xizmatlar, kreativ iqtisodiyot, kichik biznes, turizm, raqamli xizmatlar va mehnat sig'imli ishlab chiqarishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi tip - agroindustrial hududlar. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi xomashyosini dastlabki sotish bilan bir qatorda, uni qayta ishlash, saqlash, sovutish, qadoqlash va eksportga tayyorlash zanjirini shakllantirish ustuvor bo'lishi kerak.

To'rtinchi tip - yangi industrial rivojlanish nuqtalari. Bunday hududlarda avval infratuzilmani tayyorlash, keyin investorlarni jalb qilish tamoyili qo'llanishi lozim. Bu yondashuv investorlar uchun zarur infratuzilma sharoitlarini oldindan yaratish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish imkonini beradi.

Hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishning ustuvor yo'nalishlari

Tadqiqot asosida quyidagi mexanizmlarni taklif etish mumkin:

1. "Hududga mos investitsiya" tamoyili

Investitsiyalarni iqtisodiy jihatdan yetakchi hududlar bilan bir qatorda, rivojlanish salohiyati yuqori va infratuzilmaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur bo'lgan hududlarga ham yo'naltirish hamda maqsadli investitsiya paketlarini shakllantirish zarur.

2. Infratuzilmani investitsiyadan oldin shakllantirish

Sanoat zonalari, logistika markazlari va ishlab chiqarish maydonlarida elektr energiyasi, gaz, suv, yo'l va raqamli aloqa infratuzilmasi oldindan tayyorlanishi kerak.

3. Tumanlararo kooperatsiyani kuchaytirish

Har bir tumanning barcha ishlab chiqarish zanjirlarini mustaqil shakllantirishidan ko'ra, hududlarning o'zaro iqtisodiy ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda bir hudud xomashyo, ikkinchisi qayta ishlash, uchinchisi logistika, to'rtinchisi esa tayyor mahsulot va eksport funksiyasini bajaradigan hududlararo kooperatsiya modeli samarali bo'lishi mumkin.

4. Kadrlar siyosatini hududiy sanoat siyosati bilan birlashtirish

Kasbiy ta'lim muassasalari muayyan hududda rivojlantirilayotgan tarmoqlar ehtiyojlaridan kelib chiqib mutaxassislar tayyorlashi kerak. Dual ta'lim va korxona buyurtmasi asosidagi tayyorlov ushbu jarayon samaradorligini oshiradi.

5. Hududiy klasterlarni rivojlantirish

Klaster siyosatini yirik korxonalarni bir hududda jamlash bilan bir qatorda, mahalliy kichik biznes, logistika, servis, ta'lim va ilmiy tashkilotlarni ham qiymat zanjiriga integratsiya qilish asosida rivojlantirish lozim.

6. Raqamli monitoring

Har bir tuman bo'yicha investitsiya, sanoat, bandlik, tadbirkorlik, eksport va infratuzilma ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi "Hududiy iqtisodiy monitoring paneli"ni joriy etish taklif qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishda faqat ayrim hududlarga qo'shimcha moliyaviy resurslar ajratish yetarli emasligini ko'rsatadi. Hududlar o'rtasidagi tafovutlar investitsiya, infratuzilma, mehnat resurslari, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi, tadbirkorlik muhiti, mahalliy moliyaviy salohiyat va innovatsion imkoniyatlarning o'zaro farqlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Buxoro viloyati bo'yicha ma'lumotlar iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 2020-2024-yillarda ishsizlar sonining 93,9 ming kishidan 45,1 ming kishigacha kamayishi hudud mehnat bozoridagi ijobiy siljishni anglatadi. Kichik biznesning eksportdagi ulushi esa 2025-yilda 23,0 foizga yetgan.

Shu bilan birga, umumiy iqtisodiy o'sish hududlar o'rtasidagi tafovutlarni izchil kamaytirish uchun qo'shimcha maqsadli yondashuvlarni talab etadi. Shu sababli hududiy siyosatni iqtisodiy rivojlanish darajasi va mavjud salohiyatidan kelib chiqib differensiallashtirish zarur.

Maqolada taklif etilgan Hududiy iqtisodiy mutanosiblik indeksi (HIMI) hududlarni rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash, rivojlantirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va davlat resurslarini aniq yo'naltirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur indeks sanoat, investitsiya, bandlik, infratuzilma, tadbirkorlik, moliyaviy va innovatsion ko'rsatkichlarni yagona tizimda baholash imkonini beradi.

Shuningdek, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishda uch bosqichli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq:



birinchi bosqichda - bazaviy infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirish;
ikkinchi bosqichda - investitsiya, sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish;
uchinchi bosqichda - innovatsiya, raqamlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish.

Bunday yondashuv hududiy rivojlanish siyosatini "resurslarni teng taqsimlash" tamoyilidan "rivojlanish imkoniyatlarini tenglashtirish" tamoyiliga o'tkazishga xizmat qiladi. Aynan shu jihat hududlar iqtisodiyotidagi uzoq muddatli nomutanosibliklarni kamaytirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Vahobov A. V., Xajibakiev Sh. X., Raximov A. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish. - Toshkent: Universitet, 2018.
3. Granberg A. G. Osnovy regionalnoy ekonomiki. - Moskva: GU VShE, 2004.
4. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990.
5. Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
6. OECD, JRC - European Commission. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008.
7. Saaty T. L., Vargas L. G. Models, Methods, Concepts and Applications of the Analytic Hierarchy Process. - 2nd ed. - New York: Springer, 2012.
8. Nizomov A. B., Yavmutov D. Sh., Kosimova H. J. Buxoro viloyati sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlari: monografiya. - Buxoro, 2024.
9. Nuritdinov B. K. Namangan viloyatida sanoatni hududiy tashkil etishning mintaqaviy iqtisodiy determinantlari va rivojlanish xususiyatlari. - 2026. Tadqiqotda investitsiya, mehnat resurslari, infratuzilma, urbanizatsiya va bozor sig'imi asosida hududiy sanoat rivojlanishi baholangan.
10. Axmedov O. T. Hududiy rivojlanish va barqaror iqtisodiy taraqqiyot masalalariga oid tadqiqot materiallari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2025.
11. Alimqulov H. Hududiy moliyaviy nomutanosibliklarni kamaytirish va mahalliy budjetlar barqarorligi masalalariga oid tadqiqot. - 2026.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100